

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**NARZULLAYEV INOMJON SADULLA O‘G‘LI**

**SHAXSNI YUZ TASVIRI ASOSIDA TANIB OLIHNING ALGORITMIK  
VA DASTURIY TA‘MINOTINI ISHLAB CHIQISH**

05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta‘minoti

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Narzullayev Inomjon Sadulla o'g'li**

Shaxsni yuz tasviri asosida tanib olishning algoritmik va dasturiy ta'minotini  
ishlab chiqish ..... 5

**Нарзуллаев Иномжон Садулла угли**

Разработка алгоритмического и программного обеспечения  
распознавания личности на основе изображения лица  
..... 21

**Narzullaev Inomjon Sadulla ugli**

Development of algorithms and software for identifying a person based on  
facial recognition ..... 41

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works ..... 44

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**NARZULLAYEV INOMJON SADULLA O‘G‘LI**

**SHAXSNI YUZ TASVIRI ASOSIDA TANIB OLIHNING ALGORITMIK  
VA DASTURIY TA‘MINOTINI ISHLAB CHIQISH**

05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta‘minoti

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T5291 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning web-sahifasida ([www.tuit.uz](http://www.tuit.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Sultanov Djamshid Baxodirovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Nishanov Ahram Xasanovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Abdumalikov Akmaljon Abduxolliq o'g'li**  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)  
dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/30.12.2019.T.07.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "26" *dekabr* da soat *11<sup>00</sup>* dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-43, e-mail: [tuit@tuit.uz](mailto:tuit@tuit.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (*394*-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "*1*" *dekabr* kuni tarqatildi.  
(2025-yil "*1*" *dekabr* dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).



**M.M.Musayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

**E.Sh.Nazirova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
texnika fanlari doktori, professor

**A.A.Saidov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
huzuridagi ilmiy seminar rais o'rinbosari,  
texnika fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda biometrik texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu yo'nalishda signallarga raqamli ishlov berish, tahlil qilish, tasniflash, tanib olish model, usul va algoritmlarini ishlab chiqish, takomillashtirish hamda amaliyotga joriy etish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Hozirgi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlari, jumladan, Xitoy, AQSh, Yaponiya, Rossiya Federatsiyasi, Singapur, Angliya, Germaniya, Hindiston, Fransiya kabi davlatlarda biometriya yo'nalishlarining nazariy va amaliy masalalarini yechishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda biometrik ma'lumotlarga ishlov berish, tahlil qilish, tanib olish model, usul va algoritmlarini takomillashtirish, ishlab chiqish hamda dasturiy ta'minotlarini yaratishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, shaxsni yuz tasviri asosida identifikatsiyalash yo'nalishida Apple, Microsoft, Google, Sber, NEC, IBM, NTechLab, Intel, Amazon, LG, JOS, XanVan, Wisisoft, SenseTime, Clearview AI, VisionLabs, TrueFace, Cognitec Systems, AnyVision, Blippar, iProov va FDNA kabi yirik kompaniya va korporatsiyalar hozirgi kunda yetakchi hisoblanadi. Ular sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib signallarni qayta ishlash, tasniflash, tanib olish samaradorligi va tezligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalar va texnik vositalar ishlab chiqish, takomillashtirish, ayniqsa, yorug'lik o'zgarishlari va to'siqlar mavjud bo'lganda shaxsni mukammal darajada tanib olish modellarini ishlab chiqish, optimallashtirish hamda identifikatsiyalashni avtomatlashtirilgan intellektual tizimlarini yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda mazkur yo'nalishda tasvirlarga raqamli ishlov berish, tahlil qilish va tanib olishga mo'ljallangan dasturiy vositalarni ishlab chiqish va joriy etishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasida, jumladan "robototexnika komplekslari va odamlar o'zaro ta'sirining algoritmlarini ishlab chiqish, ma'lumotlar uzatish tarmoqlari infratuzilmasini, o'rnatilgan sensorlar va sensor tarmoqlarni takomillashtirish, shuningdek, "bulutli" xizmatlarini taqdim etishning turli xil modellarini amalga oshirish uchun dasturiy ta'minot yaratish bo'yicha ilmiy ishlarni olib borish"<sup>1</sup> hamda 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarorining 2021-2022 yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarini o'rganish va joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturida ustovor vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda jumladan, signallarga raqamli ishlov berish, sifatini oshirish, tahlil qilish hamda biometrik nazorat tizimlarini yaratish muhim masalalar hisoblanadi. Ushbu masalalarni samarali yechish signallarga zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ishlov berish model, usul va algoritmlarini, biometrik belgilar asosida identifikatsiyalash va autentifikatsiyalash, obyektlarni o'ziga xos belgilarini ajratishni inobatga olgan holda rivojlantirish, shuningdek,

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079 «Raqamli O'zbekiston- 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni

qaydnomalarni shakllantirish, obyektlarga kiruvchi shaxslarni nazorat qilish avtomatlashtirilgan intellektual tizimlarni ishlab chiqish va joriy qilish, signallarga raqamli ishlov berishni samarador va tanib olish sifati yuqori bo'lgan model, usul va algoritmlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079 "Raqamli O'zbekiston- 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 28-fevraldagi PF-27 "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmonlari, 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora tadbirlari to'g'risida", 2024-yil 14-oktyabrdagi PQ-358-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 30-avgustdagi 479-son "O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarni identifikatsiyalashning Mobil-ID tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Axborotlashtirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tasvirlarni tahlil qilish, ishlov berish, tasniflash hamda tanib olish model, usul va algoritmlarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish masalalarini yechish, ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha xorijiy olimlardan U.Prett, T.Xuang, R.Duda, N.Kim, B.Xorn, akeo Kanade, Paul Ekman, Maja Pantic, Anil K. Jain, Serge Belongie, Stan Z. Li, Xilin Chen, Rama Chellappa, Y.Furman, A.Gorelik, A.Rozenfeld, T.Pavlidis, R.Gonsales, R.Vuds, V.Soyfer, Yu.Juravlev, V.Kirichuk, Yu.Yakushenkov, I.Salnikov va boshqalarning ilmiy ishlari diqqatga sazovor.

O'zbekistonda tasvirlarga ishlov berish, tahlil qilish, tasvirlardagi obyektlar belgilarini shakllantirish, informativ belgilarni ajratish, timsollarni tanib olish va tasniflashni nazariy asoslarini rivojlantirishga M.M.Kamilov, Sh.X.Fozilov, S.S.Sodiqov, M.M.Musayev, U.R.Xamdorov, D.T.Muxamedieva, N.S.Mamatov, N.M.Mirzayev, A.X.Nishanov, S.S.Radjabov, Sh.E.Tulyaganov va boshqalar o'zlarining hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Hozirgi vaqtga kelib xavfsizlik masalasi inson faoliyatining deyarli barcha sohalarda muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Jumladan, nazorat, axborot va resurslar xavfsizligini ta'minlovchi kirish-chiqishni boshqarish uchun samaradorligi yuqori bo'lgan tizimlariga ham ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. Bunda biometrik yondashuvlar, xususan yuz tasviri asosida shaxsni identifikatsiyalash usul va algoritmlari eng istiqbolli yechimlardan biridir. Kompyuterli ko'rish va sun'iy intellekt texnologiyalari yuz bilan bog'liq bo'lgan amaliy masalalarni yechish uchun aniqligi va ishonchligi yuqori bo'lgan tizimlarni ishlab chiqishda keng imkoniyatlar taqdim etmoqda. Tizimlar asosini tashkil etuvchi

usul va algoritmlar real vaqt rejimida ishlashi zarur va identifikatsiyalashda yuqori aniqlik va tezlikni ta'minlashi shart.

Zamonaviy amaliy tizimlarga qo'yiladigan asosiy talablaridan biri bu xavfsizlik va boshqarishdir. Tasvirlarni intellektual tahlil qilish samarali usul va algoritmlarini ishlab chiqish vizual ma'lumotlarga asoslangan boshqarishning ishonchli tizimlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Bu xavfsizlik o'ta muhim bo'lgan sohalarda alohida ahamiyatga ega. Tasvirlarni tahlil qilish algoritmlari foydalanish qulay, tezkor va samarali bo'lishi shart. Tanib olish tizimlari murakkab amallarni talab qilmasligi, tez va qulay bo'lishi shart. Shuning uchun yuqori aniqlikni ta'minlay oladigan tezkor va ishonchli identifikatsiyalashni ta'minlovchi yondashuvlarni ishlab chiqish kirish-chiqishni boshqarish tizimlari samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, tasvirlardagi obyektlarni tanib olish algoritmlari uchun tasvir sifati muhim ahamiyatga ega bo'lib, noto'g'ri identifikatsiya jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun tasvirlar sifatini yaxshilash orqali tanib olishni yuqori aniqligi va ishonchliligini ta'minlay oladigan usul va algoritmlarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining FZ-201907178 "Yuz tasvirlarini qayta ishlash asosida shaxsni tanib olish algoritmlari va dasturiy ta'minotini yaratish" (2020-2022) mavzudagi loyihasi hamda Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti IL-33,41-2105981 "Nutq signallarini qayta ishlash asosida shaxsni tanib olish algoritmlari va dasturiy mahsulotini yaratish" (2021-2023) mavzudagi loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Shaxsni yuz tasviri asosida identifikatsiyalash modellari, algoritmlari va dasturiy majmuasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

yuz tasviri asosida shaxsni tanib olish tizimlari, mavjud usullar va algoritmlar hamda shaxs yuz tasvirlari bazalarini tahlil qilish;

tayanch vektorlar hamda piksel intensivligini inobatga olgan holda tasvirdagi yuzlarni qidirish va yuz belgilarini shakllantirish algoritmlarini ishlab chiqish;

Veyvlet-almashtirishlari asosida yuz belgilarini shakllantirish va ular asosida shaxsni tanib olish algoritmini ishlab chiqish;

evristik mezonlar asosida yuzning informativ belgilarini aniqlash va tanlash algoritmini ishlab chiqish;

mavjud va taklif etilgan algoritmlarni qiyosiy tahlil qilish nuqtai nazaridan tajribaviy tadqiqotlar o'tkazish hamda yuz tasvirlarini tanib olish dasturiy ta'minotini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida shaxslarning yuz tasvirlari to'plamlari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** insonlarni yuz tasvirlari asosida identifikatsiyalash modeli, usullari, algoritmlari hamda dasturiy ta'minoti tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Nazariy tadqiqotlar tizimli tahlil, imitatsion modellashtirish, ehtimollik nazariyasi, matematik statistika, diskret matematika, signallarga ishlov berish, mashinali o'qitish, chuqur o'qitish, tasvirlarga raqamli ishlov berish, sun'iy ko'paytirish va filtrlash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tayanch vektorlar va piksel intensivligi asosida tasvirdagi yuzlarni qidirish hamda yuz belgilari vektorini shakllantirish algoritmlari ishlab chiqilgan;

diskret veyvlet almashtirishlari asosida yuz belgilari bazasini shakllantirish va ajratish orqali shaxsni tanib olish algoritmi ishlab chiqilgan;

evristik mezonlar asosida yuzning informativ belgilarini aniqlash hamda sinflar orasidagi va ichidagi masofani hisoblash orqali belgilarni tanlashning matematik ta'minoti va algoritmi ishlab chiqilgan;

shaxslarni yuz tasviri asosida tanib olish dasturiy ta'minotining funksional strukturasi hamda dasturlararo axborot almashinuv interfeysi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

yuz tasvirlariga dastlabki ishlov berish orqali sifatini oshirish va normallashtirish hamda yuz tasvirida informativ belgilarni shakllantirishning algoritmik ta'minoti ishlab chiqilgan;

shaxslarni yuz tasvirlari asosida tanib olish va nazoratni tashkil etish dasturiy majmuasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** Taklif qilingan algoritmlarni ishlab chiqishda shaxsni yuz tasvirlari asosida identifikatsiyalashning matematik apparatining to'g'ri qo'llanilishi hamda tegishli guvohnomalar, joriy qilinganlik to'g'risidagi dalolatnomalar, chop qilingan ilmiy maqolalar va tajribaviy tadqiqotlarning ijobiy natijalari bilan tasdiqlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tasvirlarga ishlov berish, tasvir sifatini oshirish va qayta ishlash nazariy asoslarini istiqbolli rivojlanishiga ishlab chiqilgan algoritmlarni hissa qo'shishi bilan izohlanadi. Tasvirlarga ishlov berish uchun taklif etilgan tasvir sifatini oshirish va normallashtirish algoritmlari hamda qoidalariga ega avtomatlashtirilgan tizimlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan dasturiy majmua tasvirlarga raqamli ishlov berish, tasvirlarni shakllantirish va sifatini oshirish orqali turli avtomatlashtirilgan tizimlarni yaratishda qo'llanilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Shaxsni yuz tasviri asosida tanib olishning yondashuv va algoritmlarini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalarni amaliy qo'llanilishi quyidagilardan iborat:

yuz xossa va xususiyatlarini inobatga olgan holda yuz tasvirini normallashtirish algoritmi va tayanch vektorlarni inobatga olgan holda tasvirdagi yuzlarni qidirish algoritmlari asosida ishlab chiqilgan dasturiy majmua Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali amaliy faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 30-iyuldagi ma'lumotnomasi). Natijada kirish-chiqish va talabalar davomatini nazorat qilish bo'yicha 98% aniqlik bilan yuz tasviri asosida shaxsni identifikatsiyalashni amalga oshirmoqda.

evristik mezonlar asosida yuz informativ belgilarini aniqlash algoritmi shakllantirilgan, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan dasturiy majmua “University of Management and Future Technologies” universiteti amaliy faoliyatiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 30-iyuldagi ma’lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijalarini qo‘llash universitet talabalarini binolarga kirish-chiqish va davomat qilishga sarflanadigan vaqtni o‘rtacha 12 foizga qisqartirish imkonini berdi;

Veyvlet-almashtirishlari asosida yuz belgilarni shakllantirish va ular asosida shaxsni tanib olish algoritmi asosida ishlab chiqilgan dasturiy majmua Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti amaliy faoliyatiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 30-iyuldagi ma’lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijalarini qo‘llash “Kompyuter injiniring” fakulteti talabalarini binoga kirish-chiqishini nazorat qilishga va talabalarni davomat qilishga sarflanadigan vaqtni o‘rtacha 10 foizga qisqartirishga imkon berdi va tanib olishni 4-5 foizga yaxshilab o‘rtacha 97% aniqlik darajasini korsatdi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 24 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 2 tasi xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida nashr qilingan hamda 2 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarini qayd qilish guvohnomalari olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 111 betni tashkil etadi.


## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Dissertatsiyaning kirish qismida** tadqiqot mavzusining dolzarbligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqot metodlari va ilmiy farazi, himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar va ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning joriy qilinishi va ishning sinovdan o‘tishi, natijalarning e’lon qilinganligi, foydalanilgan model va algoritmlar, qo‘llanilish sohasi va amalga oshirish bosqichlari qisqacha bayon etilgan.

Dissertatsiyaning “**Shaxsni yuz tasviri asosida tanib olish masalasi va usullari**” deb nomlangan birinchi bobida tasvirlardagi obyektlarni tanib olish masalasi va yuz tasvirlarini tanib olish usullari va yondashuvlari, yuz tasviri asosida tanib olish usullari tadqiqi, shaxsni yuz tasviri yordamida tanib olishning zamonaviy usullari, fazo topologik xususiyatlari bo‘yicha shaxsni yuz tasviri asosida tanib olish kuzatish tizimlarining qo‘llanilish sohalari hamda tadqiqot masalasining qo‘yilishi keltirib o‘tilgan. Tanib olish yondashuvlari, ularni yutuq va kamchiliklari hamda

amaliy joriy etilishi bilan bog‘liq muammolar bayon etilgan. Shuningdek, inson va mashinaning yuzni tanib olishdagi imkoniyatlari o‘rganilgan va taqqoslangan.

Tanib olish natijasiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, chuqur o‘qitishga asoslangan usullar asosida olib borilgan xorijiy va mahalliy tadqiqotlar tahlil qilinib, yuz tasviri asosida shaxsni tanib olish jarayonining asosiy bosqichlari belgilandi. (1-rasm).



1-rasm. Tasvirlarni tanib olishning asosiy protseduralari va usullari

Dissertatsiyaning “Yuz tasviriga dastlabki ishlov berishning algoritmik ta’minoti” deb nomlangan ikkinchi bobida tasvirlarga dastlabki ishlov berish va sifatini oshirish algoritmlari, tasvirdagi yuz sohasini aniqlash va belgilash algoritmlari va yuz tasvirlarini normallashtirish algoritmlari keltirilgan. Yuzni aniqlashga tayyorlashda tasvirlarga dastlabki ishlov berish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, unda xalaqitlarni bartaraf etish, kadr o‘lchamini kamaytirish, chiziqli va medianali filtrlash, yorqinlik va kontrastni to‘g‘rilash kabi jarayonlar bayon qilingan. Shuningdek, tasvir sifatiga ta’sir etuvchi xalaqitlarni pasaytirish uchun additiv, impulsli va multiplikativ xalaqit modellari qo‘llanilishi qayd etilgan.

*Tayanch vektorlar usulining qo‘llanilishi.* Yuzni aniqlash masalasi kirish tasvirlarni ikki sinfga bo‘lishdan iborat bo‘lganligi sababli, uni yechishda tayanch vektorlar usuli muvaffaqiyatli qo‘llanilishi mumkin, bu esa optimal bo‘luvchi tekislikni qurishga imkon beradi.

Tayanch vektorlar usulida klassifikatorni qurish uchun

$$f(x) = \text{sgn} \left( \sum_{i=1}^N \alpha_i y_i K(x, x_i) + b \right) \quad (1)$$

quyidagi optimallashtirish masalasini yechish kerak:

$$\max_{\alpha} L(\alpha) = \max_{\alpha} \left[ \sum_{i=1}^N \alpha_i - \frac{1}{2} \sum_{i,j=1}^N \alpha_i \alpha_j y_i y_j K(x_i, x_j) \right] \quad (2)$$

qo‘shimcha cheklovlar bo‘lganda

$$\sum_{i=1}^N \alpha_i y_i = 0$$

$$0 \leq \alpha_i \leq C.$$

bu yerda  $K(x, x_i) = \varphi(x) \varphi(x_i)$  o‘zgartirishning yadrosi,  $\varphi(x)$ - berilgan chiziqli bo‘lmagan funksiya,  $\alpha$  - Lagranj ko‘paytuvchilari,  $C$  - optimallik shartini buzganlik uchun jarima,  $y_i$  - o‘zgaruvchi, agar  $\bar{x}_i$  kirish vektori yuz tasviriga to‘g‘ri keladigan bo‘lsa, +1 qiymatini oladi, aks holda -1 qiymat qabul qiladi. (1) formuladagi ajratuvchi tekislik uchun  $b$  o‘zgaruvchining qiymati Kun-Takker shartidan topiladi.

(2) ifodadagi klassifikatorni sozlash jarayonida, odatda,  $\alpha_i$  koeffitsientlarining ko'pi nolga teng bo'ladi, shuning uchun tegishli  $\bar{x}_i$  kirish vektorlari klassifikatorni qurishda qatnashmaydi.  $\alpha_i > 0$  bo'lgan qolgan vektorlar tayanch vektorlar deb ataladi, chunki ular bo'luvchi tekislikni shakllantiradilar.

Keyinchalik standart tayanch vektorlar usulini yanada takomillashtirish yuzlar tasvirlari bo'lmagan tasvirlarni to'g'ri tasniflash uchun tayanch vektorlaridan olingan bir nechta vektorlardan foydalanish yetarli bo'ladi. Bu soxta timsollarni samarali ravishda yo'q qilib, ko'proq vektorlardan foydalanadigan tobora murakkablashib borayotgan klassifikatorlarning ierarxik ketma-ketligini yaratishga imkon beradi.

Tasvirdagi yuzlarni qidirishda har bir piksel yuzning potensial markazi hisoblanadi. Shuning uchun, barcha tayanch vektorlardan foydalanish va hatto ularning qisqartirilgan to'plami hisoblash nuqtai nazaridan samarasiz bo'lishi mumkin. Shuning uchun quyidagi ierarxik sxemadan foydalanishi tavsiya etiladi.

1.  $j=1$  deb olinadi.
2.  $y_j = \text{sgn}\left(\sum_{i=1}^j \beta_{j,i} K(\bar{x}, \bar{z}_i) + b\right)$  hisoblanadi.
3. Agar  $y < 0$  bo'lsa,  $\bar{x}$  yuzga tegishli bo'lmagan tasvir deb hisoblanadi.
4. Agar  $y > 0$  bo'lsa, u holda  $j = j + 1$  bo'ladi.
5. Agar  $y < N$  bo'lsa, 2-qadamga o'tiladi.
6. Agar  $j = N$  bo'lsa, vektorlarning to'liq to'plamini  $\bar{x}$  vektoriga qo'llanadi, ya'ni:  $f(\bar{x}) = \text{sgn}\left(\sum_{i=1}^N \alpha_i y_j K(\bar{x}, \bar{x}_i) + b\right)$ .

Ushbu algoritmnining o'ziga xos xususiyati - bu timsollarning katta qismini tasniflash uchun oz miqdordagi  $j \ll N_z$  vektorlardan foydalanishi hisoblanadi. Gauss  $K$  yadrosi uchun faqat bitta vektordan foydalanish oddiy shablon bilan taqqoslashga mos kelishini ta'kidlab o'tish zarur.

Tasvirdagi yuz sohasini aniqlash - bu yuzni fon elementlaridan ajratish va uni lokallashtirish jarayonidir. Aniqlangan yuzlar bir shaxsga tegishli bo'lsa ham, turli tasvirlarda burilish, yorqinlik, o'lcham va boshqa omillar bilan farqlanadi. Ushbu farqlar yuzning asosiy xususiyatlariga bog'liq bo'lmagan bo'lsa-da, tanib olish aniqligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Bu muammoni kamaytirishning samarali usuli - yuzni normallashtirish hisoblanadi. Normallashtirishning maqsadi tanib olish jarayoniga ta'sir qiluvchi ortiqcha ma'lumotlarni (fon, soch, kiyim va boshqalar) kamaytirishdir. Odatda, bu jarayon ko'zning markaziy nuqtalari asosida bajariladi. Ko'plab mavjud algoritmlar ko'z joylashuvini aniqlay olsa-da, ularning aksariyati katta hisoblash resurslarini talab qiladi yoki ko'z sohasini aniq lokalizatsiyalay olmaydi.

*Yuz xususiyatlarini aniqlash.* Yuz xususiyatlarni aniqlash tizimi chap ko'z olmasi markazi, o'ng ko'z olmasi markazi va og'iz markazi kabi uchta xususiyatni aniqlaydi. Har bir xususiyat o'rganilayotgan soha ROI yordamida aniqlanadi.

Dissertatsiyaning “**Yuz tasviri belgilar informativ fazosini shakllantirishning matematik va algoritmik ta’minoti**” deb nomlangan uchinchi bobda yuzni tanib olish masalasida tasvir belgilarini shakllantirish usul va algoritmlari tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda yuz tasviri belgilarini ajratib olish muammosining zamonaviy holati, belgilar vektorini shakllantirishda Gabor filtridan foydalanish, biologik shartli belgilar, lokal binar shablonlar, Xaar va Dobeshi veyvlet-almashtirishlari va Gabor filtrlari bayoni keltirilgan.

Yuzni tanib olish masalasida tasvir belgilarini shakllantirish algoritmi va matematik ta’minoti bayon etilgan bo‘lib, unda tasvirlardan yuz belgilarini ajratish usul va algoritmlari to‘rtta sinfga sinflashtirilgan va quyida ularni har biri bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Tahlil natijasi nafaqat standart og‘ishni hisoblash, balki boshqa usullarni qo‘llash orqali shakllantiriladigan belgilar sonini oshirishni va tasvir chegaralarni aniq ajratishga qodir bo‘lgan Gabor filtri yadrolarini aniqlash maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatilgan.

Ishda quyidagi qadamlardan iborat algoritmdan foydalanish taklif etilgan:

*1-qadam.* Tasvir kesishmaydigan kvadrat sohalarga ajratish amalga oshiriladi.

Faraz qilaylik,  $W \times H$  o‘lchamga ega  $I$  tasviri berilgan bo‘lsin. Bu yerda  $W$  – tasvir eni,  $H$  – tasvir uzunligi. Tasvirni  $16 \times 16$  piksellik bir-biri bilan kesishmaydigan sohalarga ajratish quyidagicha amalga oshiriladi:

$$N = \left( \frac{W}{16} \right) \times \left( \frac{H}{16} \right).$$

bu yerda  $N$  – ajratilgan sohalar soni bo‘lib, tasvirni har bir sohasi  $I_{ij}$  bilan belgilangan.

*2-qadam.* Har bir sohada standart og‘ish hisoblanadi.

$$\sigma_{i,j} = \sqrt{\frac{1}{256} \sum_{k=1}^{16} \sum_{l=1}^{16} (I_{ij}^{(k,l)} - \mu_{ij})^2},$$

bu yerda  $I_{ij}^{(k,l)}$  – sohani  $k$ -satr va  $l$ -ustundagi piksel intensivligi qiymati,  $\mu_{ij}$  – esa  $I_{ij}$  sohani o‘rtacha intensivlik qiymati bo‘lib, u quyidagicha hisoblanadi:

$$\mu_{ij} = \frac{1}{256} \sum_{k=1}^{16} \sum_{l=1}^{16} I_{ij}^{(k,l)}.$$


*3-qadam.* Olingan qiymatlar vektorga yoziladi. Har bir soha uchun standart og‘ish hisoblangandan so‘ng, uning qiymati  $V$  belgilar vektoriga qo‘shiladi.

$$V = \left[ \sigma_{11}, \sigma_{12}, \dots, \sigma_{ij}, \dots, \sigma_{\frac{W}{16} \frac{H}{16}} \right].$$

Ushbu amallar natijasida yuzni aniq xarakterlovchi vektor hosil bo‘ladi.

Yuqorida tavsiflangan algoritmnining Gabor filtrlari orqali tasvirni qayta ishlash tuzilmasi quyidagi 2-rasmda keltirilgan.

Taklif etilgan algoritmni testlash ORL, FERET va muallif tomonidan shakllantirilgan yuz tasvirlari bazalarida o‘tkazildi. Birinchi test tanlanma etalon tasvirlar sifatida boshni maksimal orqaga burilishli tasvirlarini tanlab olish tamoyili asosida tuzilgan. Shuningdek, qolgan tasvirlardan tasodifiy yana 8 ta test tanlanmalar shakllantirilgan. Tasvirlar o‘lchami  $192 \times 192$  ga teng deb olingan bo‘lib, Gabor filtrlari yadrosi soni – 16 (8 ta haqiqiy, 8 ta mavhum), o‘lcham –  $16 \times 16$ ni tashkil etadi. Masofa o‘lchovi sifatida Evklid masofasidan foydalanilgan.



**2-rasm. Tasvirdan axborotni olish va undan belgilar vektorini shakllantirish algoritmi tuzilmasi**

Har bir tasvir uchun yuqorida tavsiflangan algoritmi bo'yicha belgilar vektori shakllantirilib, har bir test tanlanma uchun joriy tasvir belgilar vektoridan etalon tanlanmadan har bir tasvir belgilar vektorigacha masofa aniqlangan. Eng kichik masofaga tasvirlar bir xil bo'lganda erishildi. Testlash natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

**Gabor filtri qo'llanilgandagi tanib olish aniqligi natijalari**

Tanlanma	Tanib olish aniqligi (%)	
	Qayta ishlanmagan holatda	Gabor filtri bilan qayta ishlangan holatda
10	78%	88%
11	79%	89%
13	80%	90%
14	81%	91%
15	83%	92%
16	86%	94%
17	89%	95%
18	91%	97%
20	93%	98%
<b>O'rtacha</b>	<b>84.4%</b>	<b>92.6%</b>

Xaar va Dobeshi veyvlet-almashtirishlar birikmasiga asoslangan tasvirlarda obyektlar belgilarini ajratish usuli quyidagi bosqichlardan iborat: tasvir o'lchamini almashtirish va o'zgartirish, veyvlet-koeffitsientlarni olish, o'rtacha veyvlet-koeffitsientlarni hisoblash.

Xaar, Dobeshi va PCA veyvlet-almashtirishlarni birgalikda qo'llashga asoslangan o'quv tanlanmaning obyektlarining  $M$  ta tasvirlaridan belgilar bazasini yaratish jarayoni quyidagi bosqichlardan tashkil topgan:

1. Olingan veyvlet-koeffitsientlarni vektor ko‘rinishida ifodalash  $\vec{I}_i$ , bu yerda  $i = 1, \dots, M$ ;

2. O‘rtacha tasvirni formula bo‘yicha hisoblash:  $\vec{I}_{cp} = \frac{1}{M} \sum_{i=1}^M \vec{I}_i$ ;

3. O‘rtacha tasvirni har bir tasvirdan ayirish  $\vec{\Phi}_i = \vec{I}_i - \vec{I}_{cp}$

4. Xos obyektlni hisoblash:  $\vec{u}_i = \sum_{k=1}^M v_{ik} \vec{\Phi}_k, i = 1, \dots, M$ , bu yerda  $\vec{v}_i - W^T W, W = \{\vec{\Phi}_1, \dots, \vec{\Phi}_M\}$  matritsaning xos vektorlari.

5. Har bir obyekt uchun unga mos keluvchi vektorni  $\vec{\Omega}_k^T = \{\omega_1, \dots, \omega_M\}$  xos obyektlar fazosida hisoblash, bu yerda  $\omega_i = \vec{u}_i^T (\vec{I}_i - \vec{I}_{cp}), i = 1, \dots, M$

6. Hosil bo‘lgan vektorni bazaga saqlash.

Yangi kiruvchi obyekttni tanib olish jarayoni quyidagicha bajariladi:

1. Kiruvchi tasvir obyekttni belgilarini Xaar va Dobeshi veyvlet-almashtirishlarini birgalikda qo‘llash asosida ajratish;

2. Olingan veyvlet-koeffitsientlarni  $\vec{I}_{vx}$  vektor ko‘rinishida ifodalash;

3. Kiruvchi obyekt uchun unga mos keluvchi  $\vec{\Omega}^T = \{\omega_1, \dots, \omega_M\}$  vektorni xos obyektlar fazosida hisoblash, bu yerda  $\omega_i = \vec{u}_i^T (\vec{I}_{vx} - \vec{I}_{cp}), i = 1, \dots, M$ ,

4. Kiruvchi obyekttni belgilar bazasidan har bir ma‘lum obyekt bilan Evklid masofasini hisoblash asosida solishtirish:  $d_k^2 = \|\vec{\Omega} - \vec{\Omega}_k\|^2$

5. Kiruvchi obyekttni  $d_k$  kattalikni  $\delta$  chegara qiymati bilan taqqoslash yo‘li bilan ma‘lum obyektga tegishlilikini aniqlash. Agar Evklid masofasi kattaligi  $d_k$  chegara  $\delta$  qiymatidan biror bir  $k$  uchun kichik bo‘lsa, u holda obyektning bunday tasviri  $k$ -sinfga tegishli. Aks holda u tanib olinmagan hisoblanadi.

Shaxsni yuz tasviri asosida tanib olishda informativ belgilarni ajratib olish va belgilar fazosining o‘lchamini kamaytirish usulida informativ belgilarni ajratib olish masalasi muhim va murakkab vazifa ekanligi aniqlangan. Bu jarayonda belgilarni tanlash mezonlarini masala xususiyatiga mos tanlash zarurligi keltirilgan va belgilar fazosini optimallashtirish uchun informativ belgilar fazosini maksimallashtirishga yordam beruvchi yondoshuvlar hamda optimallashtirish masalasi keltirilgan.

Matematik jihatdan, bu masala quyidagicha tavsiflanadi:

Faraz qilaylik, yuz tasvirlar to‘plami  $X$  (3), belgilar fazosi  $\lambda$  (4) va informativ vektorlar to‘plami  $\Lambda^l$  (5) berilgan bo‘lsin.

$$X = \bigcup_{i=1}^r X_i, \quad X_i = \{x_{i1}, x_{i2}, \dots, x_{im_i}\}, \quad X_i \cap X_j = \emptyset \text{ uchun } i \neq j, \quad (3)$$

bu yerda  $X_i - i$ -sinfga tegishli bo‘lgan yuz tasvirlari,  $x_{it} = (x_{it}^1, x_{it}^2, \dots, x_{it}^N), i = \overline{1, r}, t = \overline{1, m_i} -$  tasvirni  $N$ -o‘lchamli belgilar fazosidagi vektori.

$$\lambda = (\lambda_1, \lambda_2, \dots, \lambda_N), \quad \lambda_j \in \{0, 1\} \quad (4)$$

bu yerda  $\lambda_j = 1 -$  belgilar fazosining  $j$ -komponenti informativ,  $\lambda_j = 0 -$  belgilar fazosining  $j$ -komponenti informativ emas.

$$\Lambda^l = \{\lambda \mid \lambda_j \in \{0, 1\}, \forall j = 1, \dots, N\} \quad (5)$$

Informativ belgilar fazosida tanib olish samaradorligini maksimallashtiruvchi  $\lambda$ -vektorni topish lozim. Bu quyidagi optimallashtirish masalasi sifatida bayon etiladi:

$$\max_{\lambda \in \Lambda^l} I(\lambda), \quad (6)$$

bu yerda  $I(\lambda)$  – tanib olish samaradorligini o‘lchovchi informativlik mezoni,  $\lambda \in \Lambda^l$  – informativ vektorlar to‘plamiga tegishli cheklov.

Belgilar fazosining o‘lchamini kamaytirishning tasodifiy qatorlar daraxtini qurish usuli o‘rganilib, unda bosh komponentalar usuli (PCA) belgilar fazosi o‘lchamini kamaytirishda samarali ekanligi va bu usulni axborotni siqishdagi ahamiyati tavsiflandi. Tadqiqot ishida yuz tasviridan aniqlangan 68 ta belgidan Evklid masofasini qo‘llagan holda 42 ta informativ belgilar ajratib olinadi.

Fisher informativlik mezoni asosida yuz tasviri informativ belgilarini aniqlash masalasida Fisher mezoni asosida belgilar fazosini shakllantirish usuli tahlil qilindi va uni sinflar orasidagi masofani maksimallashtirishga yo‘naltirilganligi aniqlandi. Mazkur ishda Fisher mezonining matematik bayoni va Fisher mezoni asosida informativ belgilarni tanlash algoritmi taklif etilgan.

*1-qadam.* Dastlabki vektor tanlanadi.

$$\lambda^0 = (1, 1, \dots, 1, 0, 0, \dots, 0), \quad \text{bu yerda } \sum_{i=1}^N \lambda_i = l.$$

*2-qadam.* Qiymatlarni hisoblash amalga oshiriladi.

$$A = \sum_{i=1}^l a_i, \quad B_j = \sum_{i=1}^l b_i^{(j)}, \quad j = 1, \dots, r.$$

*3-qadam.*  $C$  vektori aniqlanadi.

$$c_i = \frac{a_i}{A} - \sum_{j=1}^r \frac{b_i^{(j)}}{B_j}.$$

*4-qadam.*  $C$  vektor komponentlarini kamayish tartibida tartiblash amalga oshiriladi.

$$c_{j_1} \geq c_{j_2} \geq \dots \geq c_{j_N}.$$

*5-qadam.* Yangi  $\mu$  vektori shakllantiriladi.

$$\mu_{j_1} = 1, \dots, \mu_{j_l} = 1, \mu_{j_{l+1}} = 0, \dots, \mu_{j_N} = 0.$$

*6-qadam.* To‘xtatish shartlari tekshiriladi.


Agar  $(C, \mu) > 0$  bo‘lsa,  $\lambda = \mu$  deb belgilash va 2-qadamga qaytish.

Aks holda,  $\lambda^* = \lambda$  optimal yechim.

